

## Toshkent shahrida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar  
va metama'lumotlar

### I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 91,9 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-iyuldagagi PF-113-simon Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbigini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	<b>2024- yil 1- iyul holatiga, birlik</b>	<b>2025-yil 1- iyul holatiga, birlik</b>
Uchtepa tumani	6902	7091
Bektemir tumani	2518	2730
Yunusobod tumani	9951	10821
Mirzo-Ulug'bek tumani	9968	10659
Mirobod tumani	7027	7515
Shayhontoxur tumani	7497	8157
Olmazor tumani	8015	8405
Sirg'ali tumani	5104	5747
Yakkasaroy tumani	7620	8343
Yashnobod tumani	7508	8427
Yangihayot tumani	2576	3554
Chilonzor tumani	10000	10467
Toshkent sh.	<b>84 686</b>	<b>91 916</b>

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

## II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2025- yilning yanvar-iyunida 9 093 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

*maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi*



2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 3 343 ta, sanoatda 816 ta, boshqa xizmatlarda 2 266 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 87 ta tashkil etilgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**



2025- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 3 343 ta, sanoatda 816 ta, boshqa xizmatlarda 2 266 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 87 ta tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**

	<b>2024- yil yanvar-iyun oylarida, birlik</b>	<b>2024-yil yanvar-iyun oylarida, birlik</b>
Uchtepa tumani	569	561
Bektemir tumani	198	246
Yunusobod tumani	926	1079
Mirzo-Ulug'bek tumani	968	971
Mirobod tumani	629	686
Shayhontoxur tumani	680	825
Olmazor tumani	730	760
Sirg'ali tumani	541	626
Yakkasaroy tumani	756	831
Yashnobod tumani	733	970
Yangihayot tumani	398	639
Chilonzor tumani	569	899
Toshkent sh.	<b>8 034</b>	<b>9 093</b>



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)  
[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

### III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdag'i ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 49,9% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1,1% ga kamaygan.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdag'i ulushi dinamikasi




#### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 32 578,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 37,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (64,7%), Yunusobod tumani (61,0%), Chilonzor tumani (49,9 %), Yakkasaroy tumani (44,1%) va M.Ulug'bek tumani (41,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi (choraklik)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari)dagi ulushi (choraklik)

### Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 26 519,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 69,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,8 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sirg'ali tumani (90,4 %), Uchtepa tumani (88,6 %) va Mirzo-Ulug'bek (78,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

## Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 28 737,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 60,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 161,4 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani (89,0 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (81,9 %), Olmazor tumani (78,2 %) va Yangihayot (77,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyi

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 30 172,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 56,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Bektemir tumani (87,4%), Uchtepa tumani (83,8 %), Chilonzor tumani (65,8 %) va Olmazor (63,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi





### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

### **Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati**

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 69 083,1 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 39,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangihayot tumani (63,5 %), Yakkasaroy tumani (54,7 %), Yashnobod tumani (52,2 %), Sergeli tumani (50,7 %), Mirobod tumani (47,4 %) va M.Ulug'bek (43,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### **Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

### **Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati**

2025- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 622,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 21,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bektemir tumani – 41,5 %, M.Ulug'bek tumani – 38,7 %, Uchtepa tumani – 38,4 %, Olmazor tumani – 31,7 %, Yashnobod tumani – 29,4 % va Chilonzor tumani – 29,4 % ni tashkil qildi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

### Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 4 602,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 47,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumani – 82,8 %, Yakkasaroy tumani – 60,5 %, Chilonzor tumani – 52,3 %, Yashnobod tumani – 51,8 %, Olmazor tumani – 50,5 % va Sergeli tumani – 49,4 % ni tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar, xizmatlar) importi hajmi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) importidagi ulushi (choraklik)**IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining  
asosiy ko'rsatkichlari****Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi**

2025- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 47,3 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 61,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,4,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil qildi.

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi  
ulushlari dinamikasi****Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi (choraklik)Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi (choraklik)


## V. Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

### Umumi iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 14,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida esa 37,0 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-iyunida nisbatan 22,9 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 80,3 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 54,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 5,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 8,7 % ga yetgan.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumi iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




### Umumi iqtisodiy holatining baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 44,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 45,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarining ulushi 2021- yilning yanvar-iyunida 47,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyunida 51,7 % yoki 4,2 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 4,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 9,6 % ni tashkil qildi.

**Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)**




**Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash**


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 38,7%, ni, qurilishda – 38,0 % ni, savdo sohasida – 36,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 36,4 % ni va sanoat sohasida – 31,6,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 59,8 % ni va savdo – 54,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 18,2 % ni va qurilishda sohasida – 9,3 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)**



## V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo'yicha-ulushi.pdf>



---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Tadbirkorlik subyektlarini  
kuzatuv bo'limi

**Ijrochi:**  
B.Holiqov  
71 203-80-03 (3536)

**Manzil:**

